

IIO PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SPIRTLII ICHIMLIKKA RUJU QO'YGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Utepov Dilmurod Sheraliyevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi.

Boyqulov G'ayrat

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti.

Annotatsiya: *Spirтли ichimliklarning nojo'ya ta'siri jamiyatning turli jabhalarida, shu jumladan huquqbuzarliklarda ham o'z ifodasini topadi. Spirтли ichimliklarga ro'ju qo'ygan shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklar ko'payishi, ayniqsa jinoyatchilikning turli shakllari, yo'lda yurganlar, oilaviy zo'ravonliklar, moliyaviy huquqbuzarliklar va boshqalar kabi masalalar dolzarb bo'ladi. Shuningdek, spirтли ichimliklar asosan shaxsning psixologik va ijtimoiy holatiga ta'sir ko'rsatib, ularni huquqbuzarlikka olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada spirтли ichimlikka ro'ju qo'ygan shaxslar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi masalasi o'rganiladi.*

Kalit So'Zlar: *spirтли ichimliklar, alkogolizm, maxsus profilaktika, jinoyatlarning oldini olish, rehabilitatsiya, ijtimoiy xavfsizlik, psixologik yordam, alkogolga qaramlik, ijtimoiy yordam tizimi, jinoyatga moyil shaxslar, yoshlar o'rtasida profilaktika, davlat siyosati, spirтли ichimliklarning salbiy oqibatlari.*

FEATURES OF THE INSPECTOR OF PREVENTION OF THE DIA FOR WORKING WITH ALCOHOLISTS

Abstract: *The negative impact of alcohol is reflected in various aspects of society, including crime. The increase in crime among people who have become addicted to alcohol, especially various forms of crime, such as road rage, domestic violence, financial crimes, etc., is of particular relevance. Alcohol also affects the psychological and social state of a person, which can lead to crime. This article examines the issue of special prevention of crime among people who have become addicted to alcohol.*

Keywords: *alcohol, alcoholism, special prevention, crime prevention, rehabilitation, social security, psychological assistance, alcohol addiction, social assistance system, criminally inclined individuals, prevention among young people, state policy, negative consequences of alcohol.*

O'zbekiston Respublikasining olib borayotgan erkin demokratik davlat qurish yo'lidagi islohotlari birinchi navbatda jamiyat a'zolarining tinchligini ta'minlash, ularning erkin yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan. Shu maqsaddan kelib chiqib, har bir fuqaroning ma'naviyati va dunyoqarashini yangi davr talablari asosida

shakllantirish hamda shaxs ma'naviyatida yuzaga keladigan turli illatlarni yuzaga keltirmasligini ta'minlash ham davlat siyosatida alohida e'tiborga olingan.

Shuning uchun shaxs ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ichkilikbozlik kabi illat hozirgi davrdagi dolzarb muammolardan biridir.

Chunki jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiluvchi bu illatlar oqibatida ko'plab jinoyatlar sodir bo'lmoqda, oilalar barbod bo'lmoqda, bolalar nogiron tug'ilmoqda.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi kabi maxsus profilaktikasi ham o'ziga xosliklarga ega. Biroq qaysidir tomonlari bilan huquqbuzarliklarning umumiy, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi turlarining ayrim jihatlariga o'xshashligi ko'zga tashlanadi.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini profilaktikaning boshqa turlaridan ajratib turuvchi asosiy jihat u faqat huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlar tashabbusi va rahbarligi ostida, oldindan ishlab chiqilgan va ichki buyruq bilan tasdiqlangan maxsus rejalar asosida amalga oshiriladigan maxsus tadbirlardan iborat yekanligidir.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi topgan O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014-yil 14-mayda qabul qilingan qonunning 4-bobida o'z aksini topgan. Ushbu qonun asosida «surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlik»ni o'ziga xos xususiyatlarini amalga oshirishda ya'ni:

- huquqbuzarliklarni maxsus va yakka tartibdagi profilaktikasi bo'yicha amalga oshirilishi. Aynan huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 4-bob 24-moddasiga asosan maxsus profilaktikaga ta'rif berib o'tilgan bo'lib bunga asosan – huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga ayrim turdagi huquqbuzarliklar qanday turdagi huquqbuzarliklar hisoblanadi.

Bunday huquqbuzarliklarga:

- ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida huquqbuzarlik sodir etgan;
- alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalarini, psixotrop moddalarini va aql-idrok faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar;

-voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda bu turdagi huquqbuzarliklarni sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlashda va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyatini huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi amalga oshiriladi;

- profilaktika inspektori tomonidan ichkilikka ruju qo'ygan shaxslar, spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalarini qabul qiluvchi shaxslarga nisbatan "maxsus" turdagi profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi. Bu turdagi "Qoradori" tadbiri aynan spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalar iste'mol qiluvchi va foydalanuvchi shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan tadbir hisoblanadi alkogol suiiste'mol qiluvchi

shaxslarga nisbatan esa alkogol suiste'mol qiluvchi shaxslarning, yaqin qarindoshlari, ko'ni-qo'shnilari va jamoat tuzilmalarining arizasiga binoan profilaktika inspektori "majburiy davolash muassasasiga joylashtiradi".

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi 2014-yil 14-mayda qabul qilingan qonunning 26-moddasi:

Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishining, ular iste'mol qilinishining, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishining oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mastlik holatida, spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarinin oldini olish, ularni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha profilaktika tadbirlarini o'tkazish; spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni saqlash, tashish, realizatsiya qilish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Majburiy davolashni o'tayotgan va davolashga hamda mehnat terapiyasiga vijdonan munosabatda bo'layotgan shaxslarga qonunda belgilangan tartibda ta'til berilishi mumkin. Shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi sudning qarori uni ishdan bo'shatish uni nafaqasini to'lamay ishdan bo'shatishga asos bo'ladi. Majburiy davolashga yuborilgan shaxslar avvalgi yashash joyidagi turar joyi maydonidan foydalanish huquqini saqlab qoladilar. Davolash muassasasida bo'lish vaqti mehnat stajining buzilishiga olib kelmaydi. Davolash muassasalaridan majburiy davolashdan qaytgan shaxslarni ishga joylashtirish tuman, shahar shahardagi tuman hokimlari zimmasiga yuklatiladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 4-bobida maxsus profilaktika o'tkazish aynan 26-moddasiga binoan "alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki spirtli ichimlikka ruju qo'yish" vositalarini, psixotrop moddalarni, aql-idrok faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslardir". Bular quyidagilardir.

Alkogolni iste'mol qiluvchi yoki spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalari, psixotrop moddalari va aql idrok faoliyatiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat.

- spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalari, psixotrop moddalari va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishini ular iste'mol qilinishining, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi hamda reabilitatsiya qilinishini oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

- mastlik holatida spirtli ichimlikka ruju qo'yish, vositalari psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini oldini olish, ularni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha profilaktik tadbirlarni o'tkazish.

- alkogolni suiste'mol qiluvchi spirtli ichimlikka ruju qo'yish vositalari psixotrop moddalari va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olish mumkin.

- ushbu qonunning 5-bobidagi 29-moddasida yakka tartibdagi profilaktikani amalga oshirishda yettita turi mavjud bo'lib, oltinchi xatboshisida "majburiy davolashga yuborish" to'g'risida qayd etib o'tilgan.

Profilaktika inspektorlari shu bilan birgalikda "spirtli ichimlikka ruju qo'yish surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlik"ning asosiy yo'nalishlarida umumiy profilaktikani amalga oshiradi. Ushbu yo'nalish o'z ichiga quyidagi profilaktik chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Profilaktika xizmatlari "spirtli ichimlikka ruju qo'yish surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlikni" oldini olishga qaratilgan shuningdek ushbu salbiy illatlardan kelib chiqish sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash bartaraf etish uning salbiy oqibatlari bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi. "Spirtli ichimlikka ruju qo'yish, surunkali ichkilikbozlik va zaharvandlik" profilaktikasiga qaratilgan aholi o'rtasida o'tkaziladigan huquqiy targ'ibot ishlari va ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish joylarda ma'ruzalar o'qish, davra suhbatlari uchrashuvlar tashkil etish, aholi gavjum joylarda alkogol, spirtli ichimlikka ruju qo'yish moddalari yoki psixotrop moddalarning iste'mol qiluvchini salbiy oqibatlari profilaktikasiga doir plakatlar, e'lonlar joylashtirish, video roliklar namoyish qilish, ogohlikka chaqiruvchi ovozli matnni eshittirish, shuningdek, aholi gavjum joylarda hamda pedagoglarni faol harakatlanishi yo'nalishlarida patrullik yo'nalishlarini tashkil etish, ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirish kabi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali qo'llaniladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini davlat va boshqa dasturlarni ishlab chiqish yuzasidan tegishli takliflarni ishlab chiqish "surunkali alkogolizm spirtli ichimlikka ruju qo'yish va zaharvandlik"ni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni inobatga

oladi va takliflarni IIV XPBB ga taqdim etadi. Profilaktika xizmatining profilaktika inspektorlari “surunkali alkogolizm, spirtli ichimlikka ruju qo‘yish va zaxarvandlik”ni oldini olishga qaratilgan huquqbuzarliklarni umumiy profilaktikasi chora tadbirlarini o‘zining kunlik va oylik ish rejasi asosida amalga oshiradi.

Yuqori turuvchi hududni ichki ishlar organlarini tasdiqlangan dasturi, rejasi va jadvallari asosida, shuningdek, sohaviy xizmatlarni hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari belgilangan tartibda tuzilgan kelishuvlarga binoan amalga oshiriladi.

Profilaktika xizmatlari “surunkali alkogolizm, spirtli ichimlikka ruju qo‘yish va zaxarvandlik”ni oldini olishga qaratilgan davlat va hududiy boshqa dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi. Profilaktika xizmatlari, xususan profilaktika inspektorlari, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari hamda boshqalar o‘z xizmat faoliyatini oli borish jarayonida muayyan shaxsda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorni shakllanishi yoki muayyan huquqbuzarlik sodir etishga “surunkali alkogolizm spirtli ichimlikka ruju qo‘yish va zaxarvandlik”ka muhtalo bo‘lganligi sabab bo‘layotganligi hamda unga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassasalar, tashkilot hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘i orqali vazirliklar qo‘mitalarga ega IIV tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdimnoma kiritadi. Spirtli ichimlikka ruju qo‘yish bilan bog‘liq barcha muammolar va ularni oldini olish esa albatta xalqaro talablar asosida bo‘lmog‘i lozim. Chunki spirtli ichimlikka ruju qo‘yish xalqaro muammodir.

Spirtli ichimlikka ro‘ju qo‘ygan shaxslar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi jamiyatning xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Profilaktika chora-tadbirlari psixologik, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy jihatlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu orqali spirtli ichimliklarga ro‘ju qo‘ygan shaxslarning jinoyat sodir etish ehtimoli kamaytiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy yordam dasturlari, rehabilitatsiya va ta‘limni rivojlantirish huquqbuzarliklarni kamaytirishga yordam beradi. Samarali profilaktika nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olish, balki spirtli ichimliklarga ro‘ju qo‘ygan shaxslarni jamiyatga qaytarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>

2. Aliqulovich T. A., Atxam o‘g‘li M. X. Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 24. – С. 230-235.

3. Убайдуллаев К. Н. Айрим хориж давлатларида тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органлар ва тергов бўлинмаларининг ўзаро ҳамкорлиги масалалари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12 Special Issue. – С. 70-78.

4. Таштемиров А. Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш даврлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. Maxsus son. – С. 133-139.

5. Убайдуллаев К. Н. Тезкор-қидирув фаолиятини такомиллаштириш давр талаби //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 194-197.

6. Таштемиров А. А. Техник криминалистик экспертиза-ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 12-19.

7. Убайдуллаев К. Н., Эргашев Ш. Т. Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши курашнинг айрим масалалари //PEDAGOG. – 2022. – Т. 5. – №. 7. – С. 778-782.

8. Таштемиров А., Хўжамбердиев А. Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 6. – С. 4-12.

9. Убайдуллаев К. Н., Эргашев Ш. Т. Кибертерроризм-опасная форма терроризма //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 3-8.

10. Таштемиров А., Комилов А. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

11. Убайдуллаев К. Н. Содействие граждан оперативным подразделениям органам внутренних дел как основа оперативно-розыскной деятельности //Development and innovations in science. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 63-72.

12. Таштемиров А., Юлдошев Х. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 17. – С. 55-61

13. Убайдуллаев К. Н. Ўзбекистонда қуролли можаро ҳудудларидан қайтганларни реабилитация ва реинтеграция қилиш масалалари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 12. – С. 121-128.

14. Тоштемиров А. Киберфирибгарлик билан боглик жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 11/S. – С. 95-102.

15. Убайдуллаев К. Н. Жиноят процессида тезкор-қидирув фаолияти натижаларидан фойдаланиш муаммолари //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 62-70.

16. Таштемиров А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик жиноятларининг тавсифи ва ўзига хос хусусиятлари //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2024. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 25-32.

17. Исамидинов С. Фирибгарлик жинояти тушунчасининг илмий-назарий ва қиёсий-ҳуқуқий таҳлили //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 191-195.

18. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

19. Тоштемиров А. А. Некоторые аспекты изучение модели управленческой деятельности в органах внутренних дел. – 2022.

20. Исомиддинов С. Ф. Фирибгарлик жиноятининг криминологик тавсифи ва уни жамиятда бўлишини тақазо этувчи омиллар таҳлили //Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 88-98.

21. Таштемиров А. А. и др. Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы //International scientific research conference. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 97-102.

22. Исомиддинов С. Г. Фирибгарлик жиноятининг содир этиш усулларининг илмий таҳлили //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 145-149.

23. Таштемиров А. А. и др. Жамоат тартибини сақлашда ички ишлар органлари ва нодавлат-нотижорат ташкилотлари ҳамкорлигининг ташкилий жиҳатлари //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 124-131.

24. Исамиддинов С. Фирибгарлик жиноятининг виктимологик профилактикаси бўйича хорижий давлатлар тажрибаси таҳлили //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 14-20.

25. Мирсалихова Г. Вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашининг хорижий давлатлардаги илғор тажрибаси //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2024. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 112-119.

26. Таштемиров А. А. и др. Ички ишлар органлари профилактика инспекторлари ва божхона хизмати ходимларининг жиноятчиликка қарши курашиш борасидаги ҳамкорлигининг ўзига хос жиҳатлари //Innovative Achievements in science 2024. – 2024. – Т. 3. – №. 35. – С. 124-132.

27. Исамиддинов С. Фирибгарликнинг виктимологик профилактикасининг янгича механизмларини тақазо этувчи омиллар таҳлили //Solution of social problems in management and economy. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 63-68.

28. Мирсалихова Г. А. Баҳодиров ААЎ Озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазо тизимининг ҳуқуқий ва ташкилий аҳамияти //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 104-108.

29. Aliqulovich T. A. et al. Bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishdagi majburiyatlarni bajarmaslik: Huquqiy va ijtimoiy jihatlari //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Т. 3. – №. 36. – С. 46-54.

30. Isamiddinov , S. (2023). A new approach to preventing victimological fraud is relevant. Академические исследования в современной науке, 2(23), 140–145.